

Sotvaldiyeva Xilola Musinovna, Farg'ona davlat universiteti dotsenti

1969xilola@gmail.com +998943992469 [ORCID ID: 0000-0002-6678-1204](https://orcid.org/0000-0002-6678-1204)



INGLIZ TILI DARSLARIGA MAQOLLARNI INTEGRATSIYA QILISHNING SAMARALI USULLARI

<https://zenodo.org/records/18779235>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitish jarayonida maqollardan foydalanishning metodik imkoniyatlari atroflicha tahlil qilinadi. Maqollar nafaqat lug'at boyligini kengaytirish vositasi, balki o'quvchilarning kommunikativ, lingvistik hamda sotsiokulturologik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi samarali didaktik material sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda maqollarning nazariy asoslari yoritilib, ularni dars jarayoniga tizimli va maqsadli ravishda integratsiya qilish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Ishda maqollardan darsning turli bosqichlarida foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi: kirish mashqlari sifatida, yozma topshiriqlar uchun asos sifatida, rolli o'yin va munozaralar tashkil etishda, shuningdek, madaniyatlararo taqqoslash vositasi sifatida. Maqollarning ko'chma ma'noli ifodalarni, iboraviy birliklarni hamda grammatik konstruktsiyalarni kontekst asosida o'rgatishdagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maqollardan muntazam foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantiradi hamda ingliz tilida ifodalangan madaniy qadriyatlarini chuqurroq anglashiga yordam beradi. Shuningdek, maqollar asosida tashkil etilgan interaktiv mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Maqolada o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqilgan bo'lib, ular maqollarni dars jarayonida samarali va tizimli qo'llashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: maqollar, til o'rganish, dars jarayoni, lug'at boyligi, grammatika, madaniy ong, ko'chma ma'no.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ИНТЕГРАЦИИ ПОСЛОВИЦ В УРОКЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В данной статье исследуются методические возможности использования пословиц в процессе преподавания английского языка как иностранного. Пословицы рассматриваются не только как средство обогащения словарного запаса, но и как важный компонент формирования коммуникативной, лингвистической и социокультурной компетенций учащихся. В работе анализируется теоретическая основа применения пословиц в обучении, а также предлагаются практические способы их интеграции в структуру урока.

Особое внимание уделяется использованию пословиц на различных этапах занятия: в качестве вводных упражнений, основы для письменных работ, материала

для ролевых игр и дискуссий, а также инструмента для межкультурного сравнения. Подчеркивается роль пословиц в освоении образной речи, идиоматических выражений и грамматических конструкций в контекстуальной форме. Результаты проведенного исследования показывают, что систематическое включение пословиц в учебный процесс способствует повышению мотивации учащихся, активизации их речевой деятельности и углублению понимания культурных особенностей англоязычных стран. В статье также представлены методические рекомендации по эффективному использованию пословиц в практике преподавания.

Ключевые слова: пословицы, обучение английскому языку, языковая компетенция, словарный запас, грамматические навыки, межкультурная коммуникация, образная речь.

EFFECTIVE METHODS FOR INCORPORATING PROVERBS INTO ENGLISH LANGUAGE LESSONS

Annotation: This article explores the methodological potential of using proverbs in teaching English as a foreign language. Proverbs are examined not only as a means of vocabulary enrichment but also as an effective tool for developing students' communicative, linguistic, and sociocultural competences. The study discusses the theoretical foundations of incorporating proverbs into language instruction and provides practical strategies for their systematic integration into classroom practice.

Special attention is given to the use of proverbs at different stages of a lesson, including warm-up activities, writing tasks, role-plays, group discussions, and cross-cultural comparisons. The article highlights the role of proverbs in teaching figurative language, idiomatic expressions, and grammatical structures within meaningful contexts. The findings indicate that regular use of proverbs in English classes enhances students' motivation, increases their speaking and writing engagement, and deepens their understanding of cultural values reflected in the language. The paper concludes with methodological recommendations aimed at making proverbs a dynamic, interactive, and pedagogically effective component of language teaching.

Keywords: proverbs, English language teaching, communicative competence, vocabulary development, grammar skills, intercultural communication, figurative language.

Kirish

Maqollar — xalq donishmandligini mujassam etgan, qisqa va lo'nda shaklda ifodalangan hikmatli iboralardir. Ular ko'pincha ko'chma yoki ramziy ma'noda qo'llanib, hayotiy tajriba va umumiy haqiqatlarni ifodalaydi. Asrlar davomida maqollar nafaqat nutq bezagi, balki milliy o'zlik va madaniyat ko'zgusi sifatida ham xizmat qilib kelgan.

Ingliz tilini o'qitishda maqollardan foydalanish til ko'nikmalari bilan bir qatorda madaniy bilimlarni ham shakllantirish imkonini beradi. Mazkur maqolaning maqsadi — ingliz tili darslarida maqollarni qo'llashning samarali usullarini tahlil qilish hamda ularning o'quvchilar til kompetensiyasi va madaniy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatishdir. Maqollar qisqa bo'lishiga qaramay, mazmunan chuqur va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan boy til birliklaridir.

Adabiyotlar tahlili

Til o'rganish jarayonida maqollardan foydalanish masalasi ko'plab olimlar tomonidan nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Xususan, H. G. Widdowson xorijiy tilni o'zlashtirish jarayonida til birliklarini kontekst asosida tushunish muhimligini ta'kidlab, ko'chma ma'noli ifodalar kommunikativ kompetensiyaning ajralmas qismi ekanligini qayd

etadi [Widdowson, 1998, p. 72–78]. Muallifning fikricha, iboraviy birliklar va maqollarni anglash o'quvchining nutq ravonligi va tabiiyligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, S. Thornbury leksik yondashuv doirasida metafora, idiomalar va maqollarni o'qitishning ahamiyatini alohida ta'kidlab, ularni lug'at boyligini oshirish hamda tilni tabiiy qo'llash ko'nikmasini shakllantirish vositasi sifatida baholaydi [Thornbury, 2006, p. 105–109]. Uning ta'kidlashicha, frazeologik birliklarni o'zlashtirish til egallash jarayonida muhim bosqich hisoblanadi.

A. J. Liddicoat esa til va madaniyatning o'zaro uzviy bog'liqligini tahlil qilib, maqollarni milliy tafakkur va ijtimoiy qadriyatlarni ifodalovchi vosita sifatida ko'rsatadi [Liddicoat, 2011, p. 45–52]. Unga ko'ra, maqollar orqali o'quvchilar nafaqat tilni, balki shu til egalarining dunyoqarashini ham anglay boshlaydilar.

H. D. Brown kommunikativ yondashuv doirasida til o'rganishda mazmunli va kontekstual materiallardan foydalanish zarurligini asoslab beradi [Brown, 2007, p. 301–305]. V. Cook esa ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayonida autentik materiallar, jumladan, maqollar va idiomatik ifodalarning ahamiyatini qayd etib, ularning madaniy kompetensiyani rivojlantirishdagi rolini ko'rsatadi [Cook, 2010, p. 135–140].

I. S. P. Nation lug'at o'rgatish metodikasini yoritib, yangi so'zlarni kontekstda o'rganish samaraliroq ekanligini ta'kidlaydi hamda maqollarni leksik va grammatik birliklarni mustahkamlashda qulay manba sifatida tavsiya etadi [Nation, 2001, p. 84–90]. Uning fikricha, qisqa va mazmunli matnlar o'quvchilarning eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi.

Shunday qilib, ilmiy manbalar tahlili maqollarning til o'rganish jarayonida nafaqat lingvistik, balki madaniy va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda ham muhim didaktik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot sifat (qualitative) yondashuv asosida tashkil etildi va u asosan ta'lim jarayonini bevosita kuzatish hamda amaliy faoliyat natijalarini tahlil qilishga yo'naltirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz tili darslarida maqollarni tizimli ravishda qo'llashning samaradorligini aniqlashdan iborat bo'ldi. Shu maqsadda maqollarni o'quv jarayoniga integratsiya qilishga qaratilgan maxsus dars ishlanmalari ishlab chiqildi hamda ular amaliyotga tatbiq etildi.

Tajriba jarayonida maqollar turli metodik shakllarda qo'llanildi. Xususan, ular dars boshida o'quvchilarni mavzuga jalb etish uchun kirish mashqi sifatida taqdim etildi. Bundan tashqari, maqollar asosida yozma topshiriqlar, jumladan, qisqa hikoya, esse va izohli matnlar yozish vazifalari berildi. Rolli o'yinlar orqali o'quvchilar maqol mazmuniga mos vaziyatlarni sahnalashtirdilar, bu esa ularning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qildi. Shuningdek, ingliz va o'zbek maqollarini qiyosiy tahlil qilish orqali madaniyatlararo taqqoslash faoliyatlari tashkil etildi. Bu jarayon o'quvchilarning nafaqat til, balki madaniy bilimlarini ham boyitdi.

Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning bir necha ko'rsatkichlar bo'yicha rivojlanishi muntazam ravishda kuzatib borildi. Avvalo, ularning yangi leksik birliklarni o'zlashtirish darajasi va ularni nutqda qo'llay olish qobiliyati tahlil qilindi. Maqollar tarkibidagi so'z va iboralarni o'rganish jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligi kengaygani aniqlandi. Shuningdek, ko'chma ma'noni anglash va izohlash qobiliyati ham alohida e'tiborga olindi. O'quvchilar maqollarning bevosita va ramziy ma'nolarini farqlash, ularni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirdilar.

Bundan tashqari, o'quvchilarning madaniy tafakkuri va madaniyatlararo muloqotga tayyorligi ham baholandi. Turli xalqlarga oid maqollarni o'rganish jarayonida o'quvchilar boshqa madaniyatlarning qadriyatlari va dunyoqarashi haqida fikr yurita boshladilar. Bu esa ularda qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirdi.

Og'zaki va yozma nutq faolligi ham muhim mezonlardan biri sifatida kuzatildi. Munozara, savol-javob, guruhiy ish va yozma topshiriqlar orqali o'quvchilarning darsdagi ishtirok darajasi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, maqollar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning erkin fikr bildirishiga va mustaqil ravishda nutq tuzishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Tadqiqot jarayonida faqat kuzatuv natijalari bilan cheklanib qolmasdan, o'qituvchi va o'quvchilarning fikr-mulohazalari ham o'rganildi. Ularning tajriba haqidagi qarashlari, qiyinchiliklari va takliflari tahlil qilinib, umumiy xulosalar chiqarildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchligini oshirishga va kelgusida metodik tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qildi.

Maqollarni dars jarayoniga integratsiya qilish usullari

1. Dars boshida kirish mashqi sifatida qo'llash

Maqollar dars avvalida muhokama uchun berilsa, o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi va mavzuga tayyorlaydi. O'qituvchi maqolni taqdim etib, uning ma'nosini taxmin qilishni so'rashi mumkin. Bu usul o'quvchilarning mavjud bilimlarini faollashtiradi.

2. Lug'at boyligini oshirish

Maqollar tarkibidagi so'z va iboralar ustida ishlash orqali yangi leksik birliklar o'rgatiladi. O'quvchilar so'zlarning bevosita va ko'chma ma'nolarini taqqoslab o'rganadilar.

3. Dialog va rolli o'yinlar tashkil etish

Maqol mazmuniga mos vaziyatlar yaratilib, o'quvchilar rolli o'yinlarda ishtirok etadilar. Bu usul nutqiy faollikni oshiradi va maqol mazmunini amaliy qo'llashga yordam beradi.

4. Madaniyatlararo taqqoslash

Ingliz maqollarini o'zbek yoki boshqa tillardagi maqollar bilan solishtirish o'quvchilarning madaniy dunyoqarashini kengaytiradi. Bu jarayonda umumiylik va farqlar aniqlanadi.

5. Yozma ishlar uchun asos sifatida foydalanish

O'quvchilarga maqol asosida hikoya, insho yoki esse yozish topshirig'i berilishi mumkin. Bu ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

6. Grammatikani o'rgatishda qo'llash

Maqollar grammatik tuzilmalarning tabiiy namunasi sifatida xizmat qiladi. Modal fe'llar, shart mayli, passiv konstruksiyalarni o'rgatishda samarali qo'llanadi.

7. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Maqol mazmunini tahlil qilish, uning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini muhokama qilish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasi shakllanadi.

8. Interaktiv o'yin va viktorinalar

Moslashtirish mashqlari, krossvordlar, "Maqol bingo" kabi o'yinlar darsni qiziqarli va samarali qiladi.

9. Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish

Maqollarni tinglab, ularning ma'nosini aniqlash topshiriqlari o'quvchilarning eshitish orqali qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

10. Guruhiy munozaralar

Ma'lum bir maqol bo'yicha bahs-munozara tashkil etish o'quvchilarning nutq faolligini va fikr bildirish madaniyatini rivojlantiradi.

Natijalar va tavsiyalar

Tadqiqot jarayonida o'tkazilgan kuzatuvlar va amaliy mashg'ulotlar tahlili maqollardan foydalanish ingliz tili ta'limida sezilarli ijobiy natijalar berishini ko'rsatdi. Avvalo, o'quvchilarning lug'at boyligi va grammatik kompetensiyasida aniq o'sish kuzatildi. Maqollar tarkibidagi iboraviy birliklar, ko'chma ma'noli so'zlar hamda turli grammatik

konstruktsiyalar ustida ishlash natijasida o'quvchilar yangi leksik birliklarni nafaqat yod oldilar, balki ularni nutqda to'g'ri va o'rinli qo'llashni ham o'rgandilar. Ayniqsa, modal fe'llar, shart mayli, taqqoslash shakllari va passiv konstruktsiyalarni maqollar kontekstida o'rganish grammatik qoidalarni tabiiy va tushunarli shaklda o'zlashtirishga yordam berdi. Natijada o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqida aniqlik va ravonlik darajasi oshdi.

Ikkinchi muhim natija — madaniy ong va madaniyatlararo tafakkurning shakllanishidir. Turli xalqlarga mansub maqollarni tahlil qilish va ularni o'zbek maqollari bilan qiyoslash jarayonida o'quvchilar boshqa madaniyatlarning qadriyatlarini, hayotiy qarashlari va dunyoqarashi bilan yaqindan tanishdilar. Bu esa ularda bag'rikenglik, hurmat va qiyosiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi. O'quvchilar maqollarning mazmunini shaxsiy tajribalari bilan bog'lab tushuntira boshladilar, bu esa o'rganilayotgan tilni chuqurroq anglashga xizmat qildi.

Shuningdek, dars jarayonida faollikning sezilarli darajada ortgani kuzatildi. Rolli o'yinlar, bahs-munozaralar, guruhviy muhokamalar va interaktiv topshiriqlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undadi. Maqollar asosida tashkil etilgan vaziyatli mashqlar o'quvchilarga tilni real kommunikativ muhitga yaqin sharoitda qo'llash imkonini berdi. Bu esa darslarning qiziqarli va mazmunli o'tishini ta'minladi hamda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirdi.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, bir qator metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Eng avvalo, maqollarni faqat alohida mashq yoki epizodik faoliyat sifatida emas, balki darsning uzviy qismi sifatida muntazam qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu o'quvchilarda maqollarni tabiiy til birligi sifatida qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Bundan tashqari, madaniyatlararo taqqoslash metodidan keng foydalanish tavsiya etiladi. Ingliz va o'zbek maqollarini qiyosiy o'rganish orqali o'quvchilar umumiylik va farqlarni aniqlash, xulosa chiqarish hamda mustaqil fikr bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu usul nafaqat til o'rganishga, balki tarbiyaviy maqsadlarning amalga oshishiga ham xizmat qiladi.

Og'zaki va yozma nutqni birgalikda rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni qo'llash ham muhimdir. Masalan, maqol asosida avval og'zaki muhokama o'tkazib, so'ng yozma insho yoki hikoya yozdirish samarali natija beradi. Bu integrativ yondashuv o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini kompleks tarzda rivojlantiradi.

Shuningdek, interaktiv o'yinlar, viktorinalar, guruhviy bellashuvlar va kreativ topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va o'rganilgan materialni mustahkamlashga yordam beradi. O'yin elementlari darsni jonlantiradi, o'quvchilarning erkin fikr bildirishiga sharoit yaratadi hamda bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, maqollarni ingliz tili ta'limiga tizimli ravishda integratsiya qilish o'quvchilarning lingvistik, kommunikativ va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali metodik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Ingliz tili darslarida maqollardan tizimli va maqsadli foydalanish o'quv jarayonini nafaqat mazmunan boyitadi, balki uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Maqollar tilning leksik va grammatik jihatlarini o'rganishda asosiy manba sifatida xizmat qilishi bilan birga, o'quvchilarga madaniy qatlamni anglash, boshqa xalqlarning hayotiy tajribasi va qadriyatlarini tushunish imkoniyatini ham beradi. Shu tariqa, maqollar til va madaniy bilimlarni birlashtiruvchi vosita sifatida nafaqat nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki madaniyatlararo tafakkurni ham shakllantiradi.

Tajriba ko'rsatdiki, rolli o'yinlar orqali maqollarni amaliy vaziyatlarda qo'llash o'quvchilarning nutq faolligini oshiradi va ular uchun tilni real kontekstda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Yozma mashqlar esa o'quvchilarga fikrlarini aniqlik bilan ifodalash, kreativ yondashuvni rivojlantirish va maqollarning mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi. Madaniyatlararo taqqoslash usullari esa o'quvchilarda boshqa xalqlarning urf-odatları, qadriyatları va dunyoqarashini o'rganish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, interaktiv faoliyatlar — viktorinalar, guruhiy muhokamalar, “Proverb Bingo” o'yinlari va boshqa ijodiy mashqlar — darslarni qiziqarli va jonli qiladi hamda o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

Shu tariqa, maqollar nafaqat til o'rganishning samarali vositasi, balki o'quvchilarni umumiy madaniy bilim va tafakkur bilan boyituvchi didaktik element sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Ular til va hayot tajribasini uzviy bog'laydi, o'quvchilarning lingvistik, kommunikativ va madaniy kompetensiyalarini rivojlantiradi, shuningdek, dars jarayonini interaktiv, mazmunli va qiziqarli qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Longman [p. 25–40].
2. Thornbury, S. (2006). *An A-Z of ELT: A Dictionary of Terms and Concepts in English Language Teaching*. Macmillan Education [p. 105–110].
3. Widdowson, H. G. (1998). *The Theory and Practice of Language Teaching*. Oxford University Press [p. 72–78].
4. Liddicoat, A. J. (2011). *Language and Culture: Reflective Narratives and the Emergence of Identity*. Palgrave Macmillan [p. 45–52].
5. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Longman [p. 301–305].
6. Cook, V. (2010). *Second Language Learning and Language Teaching*. Routledge [p. 135–140].
7. Nation, I. S. P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press [p. 84–90].
8. Sotvaldieva, H. M. (2021). *Using proverbs as a lead-in activity in teaching English as a Foreign Language*. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 159–163.
9. Sotvaldieva, H. M. (2020). *English Proverbs as a Means of Expressing People's Wisdom, Spirit and National Mentality*. *Theoretical & Applied Science*, (2), 601–604.
10. Sotvaldieva, H. M., & Masharipova, A. T. (2022). *Обучение через пословицы*. In *Наука и Просвещение: Актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 135–136).
11. Musinovna, S. H., & Tadjibaevn, M. A. (2021). *Structural and Semantic Characteristics of Proverbs*. *Евразийский Союз Ученых*, (1-4(82)), 22–25.
12. Sotvaldieva, H. M., & Masharipova, A. T. *Expressive Means in Proverbs*. [No page numbers available].
13. Mirxamidovna, M. G., & Musinovna, S. H. (2022). *Communicative Characteristics of Proverbs and Languages*. *International Journal of Formal Education*, 1(10), 11–17.
14. Musinovna, S. K. (2022). *The Concept of Parema and Paremiology*. *Miasto Przyszłości*, 24, 256–258

Mirmusayev Mashrabjon Ibrohimjon o'g'li, 4th-year student, Faculty of Tourism and Economics, Kokand University E-mail: Akmalxonmirmusayev687@gmail.com
Ergashev Muhammadjon Rakhmonovich, Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), Associate Professor, Kokand University, E – Mail: e.muhammadjon84@gmail.com



THE ROLE OF MASS MEDIA IN THE FORMATION AND DISSEMINATION OF NEOLOGISMS

<https://zenodo.org/records/18779251>

Abstract: This article examines how the media form and disseminate new words (neologisms) in modern English. The study analyzes texts from television, online news, and social media to identify the structure and functions of new lexical units. The results show that the media, while reflecting language change, play an important role in the normalization and dissemination of neologisms, especially among the younger generation. The study highlights the dominance of English words, abbreviations, and Internet jargon in the media and demonstrates the importance of these texts in language education. The article examines in detail the mechanisms of neologism formation, their social and cultural impact, and the development of language under the influence of digital technologies. The results of the study confirm the active role of the media in language formation and provide suggestions for future research.

Keywords: neologisms, mass media, media discourse, loanwords, youth language, social networks, language evolution, digital technologies, pedagogical value, cultural impact.

РОЛЬ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ И РАСПРОСТРАНЕНИИ НЕОЛОГИЧЕСКИХ ИЗУЧЕНИЙ

Аннотация: В данной статье рассматривается, как средства массовой информации формируют и распространяют новые слова (неологизмы) в современном английском языке. Исследование анализирует тексты из телепередач, онлайн-новостей и социальных сетей для выявления структуры и функций новых лексических единиц. Результаты показывают, что СМИ, отражая языковые изменения, играют важную роль в нормализации и распространении неологизмов, особенно среди молодого поколения. Исследование подчеркивает доминирование английских слов, сокращений и интернет-жаргона в СМИ и демонстрирует важность этих текстов в языковом образовании. В статье подробно рассматриваются механизмы формирования неологизмов, их социально-культурное влияние и развитие языка под влиянием цифровых технологий. Результаты исследования подтверждают активную роль СМИ в формировании языка и предлагают направления для будущих исследований.